

O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich****Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17207442>**

Davlat byudjet xarajatlarining ko'p qismi aholini ish bilan ta'minlashga yo'naltirilayotganiga qaramay, hozirda ham qishloq joylarda ishsizlikning bir qator og'riqli muammolari mavjuddir. Bu holat ayniqsa mazkur hududlarda kasbga o'qitish bilan bog'liq moddiy-texnik resurs va imkoniyatlarning cheklanganligi bilan harakterlanadi.

O'zbekistonda davlat boshqaruvida ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan "jonlantirish" tadbirlari ommaviy tus olgan bo'lib, "mahallabay", "honadonbay" ishlash tizimlari orqali yangi dasturlar amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bundan asosiy maqsad – ishsizlik toifasiga kiruvchi shaxslarga individual munosabatlar orqali, muntazam ish joylarini yaratish va ularni doimiy bandligini ta'minlashni ko'zlaydi.

Bularning barchasi hayot sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlar mazmunini o'z ichiga oladi va yangi imkoniyat eshiklarining ochilishiga turtki bo'ladi. Shuningdek, kishilarni iqtisodiy rag'batlantirib boradi.

Ishsizlikdan sug'urta tizimini isloh qilish – xususan, sug'urta tamoyilini mustahkamlash, buning natijasida qisqa muddatli to'lovlarga ega bo'lgan, shuningdek, qayta-qayta ishsiz qolgan shaxslarning to'lovlarini to'xtatishga qaratilgan.

Bizningcha, kelgusida O'zbekiston mehnat bozori o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Milliy mehnat bozorida layoqatli aholi sonining o'sishi, kasb omilkorligining ortib borishi, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohaslarining texnologik funksiyasining yuqorilashi holatlarida kuzatiladi. Shuningdek, ushbu jarayonlar aholi demografik joylashuvi hamda yosh jihatidan qarilik darajasining sezilarli ortib borishi, tug'ilishning yuqorilashi va texnik taraqqiyot yutuqlari evaziga o'rtacha umr ko'rishning ortishi natijasidir.

Qo'shimcha ish o'rinlari jamiyatda innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish evaziga amalga oshiriladi. Asosiy bandlik o'sishi ta'lim, tibbiyot, qurilish, taksist va servis faoliyatida kuzatiladi. Yuqoridagi xizmat turlari va ularning rivojlanish uslubi IT sohasi bilan integratsiyalashgan tizim faoliyatini qamrab olganligi sababli, ular xizmat turi nuqtai nazaridan qolgan sohalarga nisbatan ilgarilab bormoqda.

Ilmiy-texnik taraqqiyot iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur yangiliklar aholi turmush tarzi va e'tiqodlariga ta'sir ko'rsatib, alohida kasblarga bo'lgan ehtiyojni hosil qilib beradi. Hozirda yuksak tajribaga ega mutaxassislarining va quyi malaka talab etuvchi faoliyat turlarining kengayishi natijasida bandlikning turli-tuman sohaviy ahamiyati ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Bunday munosabat inson mehnatining natijadorligi, hayot tarzining yuqorilashi, ijtimoiy mavqe va o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shu bois, innovatsion taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy omillar inson kapitalining jamiyat hayotidagi ahamiyatini keng falsafiy tadqiq qilishni taqozo etadi.

Boshqa tomondan olib qaralganda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sust davlatlar aholisidan iqtisodiyoti barqaror davlatlar yollangan ishchi kuchi sifatida foydalanadi. Zero, "taraqqiy etgan

davlatlarning tub aholisi ‘qora’ mehnat turlarini qabul qilmaydi”¹. Bu hodisa mehnat resurslarining migratsiyasiga olib keladi.

Migratsiya asosiy jarayon sifatida zamonaviy ishlab chiqarish siyosatiga bevosita ta’sir ko’rsatadi hamda millatlar assimilyatsiyasini yuzaga keltirgan iqtisodiy-siyosiy vaziyatlar ishchi kuchi va uning tarkibiy muvozanatiga o’ziga xos ta’sir ko’rsatadi. Misol uchun, Fransiya qora tanlilar, Germaniya esa turk assimilyatsiyasi hisobidan ijtimoiy jarayon o’zgarishini boshidan kechirgan. Izlanishlarga ko’ra, hududiy tub aholi xorijdan kelganlarga nisbatan e’tiroz va shubha nuqtai nazaridan munosabatda bo’ladilar. Zero, bunday voqelik tashqi ishchi kuchi oqimining cheklanishi sabablarini keltirib chiqaradi va bu siyosat salbiy yoki ijobiy oqibatlarining yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Megapolis darajadagi shaharlar faol siyosiy va iqtisodiy markaz sifatida mehnat munosabatiga asoslangan faoliyatning quyidagi — jinoyatchilik, giyohvandlik, fohishabozlik va ichkilikbozlik kabi ijtimoiy muammolar zaminiga aylanadi. Zotan, bunday shaharlar malaka darajasi yuqori bo’lgan mutaxassislar bilan bir qatorda, oqibatlari ma’naviy tanazzulni keltirib chiqaruvchi sivilizatsiya nuqtalarini yaratib beradi. Shu sababli, migratsiya va assimilyatsiya hodisasi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma bo’lib shakllanadi va serqirra falsafiy mohiyatlarni tafakkur qilishga undaydi.

Ayrim xizmat ko’rsatish sohalarining rivojlanishi natijasida muayyan kasblarga qo’yiladigan talabning ahamiyatga ega emasligi bugungi ta’lim sifatining pasayishiga sabab bo’lmoqda. Masalan, taksistlik yoki kuryerlik kabi sohalar yuqori bilimni talab etmasada, amalda hamyonbop kasblardan biriga aylangan. Bu mehnat makonida past malaka talab etiladigan ish o’rinlarining ko’payishi orqali iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bundan tashqari, texnologik taraqqiyot davrida ayrim mehnat turlarining raqamlashtirilishi natijasida hattoki yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj qolmasligi tabiiy holga aylanyapti. Shu munosabat bilan ta’lim klassifikatorini zamonaviy kasbiy tendensiyalarga moslashtirish va qiyoslash talab etiladi. Bu jarayonda kasblar ijtimoiy ehtiyojlar ta’sirida ilmiy prognozlashtirish mezonlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yangilanayotgan O’zbekistonda ishlab chiqarish imkoniyatlari inson omili evaziga rivojlanib borayotganligi tabiiy mezondir. Uning me’yoriy muvozanati ichki va tashqi bozor munosabatlarining global ko’lami barobarida ta’sir kuchiga ega bo’lmoqda. Ichki omillar sifatida demografik vaziyat, migratsiya, mahalliy hom ashyo, ta’lim, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash kabi omillar kiritilishi maqsadga muvofiq holda shakllanadi. Tashqi omil esa, raqobatbardoshlik xususiyati, eksport va import hajmi va talabi, shuningdek, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan demokratik o’zgarishlar, sog’lom investitsiya makoni talablarini kuchaytirish asnosida vujudga keladi.

Ijtimoiy yangilanish davrida iqtisodiyot sohasida mehnatga layoqati bor aholini shakllantirishda quyidagilarga e’tibor berish zarur: birinchidan, bandlik tuzilmasi ilmiy faoliyat ta’sirida shakllanadi, texnologik taraqqiyot esa doimiy ravishda band aholi sonining o’zgarishiga sabab bo’ladi. Ikkinchidan, ishlab chiqarish sohalarida tadbirkorlik muayyan faoliyat turlarining rivojlanishiga olib keladi. Uchinchidan, ishlab chiqarish vositalarini ichki bozor ehtiyojlarini hisobga olib yo’naltirish, iqtisodiy talablarni qondirish xalq xo’jaligida tarmoqlarning kengayishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda O’zbekiston iqtisodiyoti reformatsiya jarayonlarini boshidan kechirmoqda, bu esa ishsizlikni kamaytirish va bandlik

¹ Tourene A. The Post-Industrial society. Tomorrow social history: classes, konflikts, culture inthe programmed society. –N.Y.019 y. P.254

holatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. “Moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishda band bo’lgan mehnatga layoqatli aholining tarbiyaviy xulq-atvorida o’zgarishlar ro’y bermoqda”².

O’zbekiston mehnat bozorining asosiy xususiyatlari odatda quyidagilarni qamrab oladi:

O’zbekistondagi zamonaviy mehnat bozori turli xil funksional yuklarni ko’taruvchi, bir-biriga bog’langan ikkita sferadan tashkil topgan ko’p qatlamli tuzilma bo’lib, mehnat zaxiralarini jamlash usullari, tartibga solish, ishlab chiqarish liniyalariga ta’sir xarakteri va ishchilarning egallagan pozitsiyasiga ko’ra farq qiladi. Bularga asoslanib, O’zbekiston mehnat bozori “ochiq” va “yashirin” ko’rinishlarga bo’linadi. Ochiq mehnat bozori bu – rasmiy bo’lib qonunchilik bilan mustahkamlanib qo’yiladi. Ochiq mehnat bozori real ish qidirayotgan, muayyan kasb egasi bo’lishda ta’lim va kasbiy tayyorlovga muhtoj bo’lgan aholining barcha mehnatga yaroqli qismi, mavjud bo’sh o’rinlari, lavozim, shuningdek, davlat va xususiy sektorlarda ishchi kuchiga bo’lgan talab tushuniladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Tourene A. The Post-Industrial society. Tomorrow social history: classes, konflikts, culture in the programmed society. – N.Y. 019 y. P. 254
2. Po’latova D. “Axloqshunoslik”. O’quv qo’llanma. – T., “Premier print”, 2011. – B. 116.

² Po’latova D. “Axloqshunoslik”. O’quv qo’llanma. – T., “Premier print”, 2011. – B. 116.